

## AMALIY SIYOSATSHUNOSLIK KASB SIFATIDA

Abdumalikova Sevara Orifjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti  
Siyosatshunoslik yo'naliishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17243238>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada siyosat haqidagi fan siyosatshunoslik tarkibidagi amaliy siyosatshunoslik, ya'ni siyosatining amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi fanning mohiyati va uning kasb sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, amaliy siyosatshunoslikning nazariy siyosatshunoslikdan qaysi jihatlarda farqlanishi, fanning metodologiyasiga oid yondashuvlar, fanning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** amaliy siyosatshunoslik, siyosiy nazariya, siyosiy institutlar, partiya, konseptual va tavsiflovchi funksiyasi, integratsiya funksiyasi, verifikatsiya, eksplisitlik, modellashtirish, kvantifikatsiya.

## ПРИКЛАДНАЯ ПОЛИТОЛОГИЯ КАК ПРОФЕССИЯ

**Аннотация.** В данной статье наука о политике представляет собой прикладную политологию в рамках политической науки, то есть сущность науки, занимающейся практическими вопросами политики и ее значением как профессии. Кроме того, даются сведения о различиях между практической политологией и теоретической политологией, подходах к методологии науки, истории развития науки.

**Ключевые слова:** политология, прикладная политология, политическая теория, политические институты, партия, концептуально-описательная, интеграционная функция, верификация, эксплицируемость, моделирование, количественная оценка.

## APPLIED POLITICAL SCIENCE AS A PROFESSION

**Abstract.** In this article, the science of politics is applied political science within the framework of political science, that is, the essence of the science dealing with practical issues of politics and its importance as a profession. In addition, information is given on the differences between practical political science and theoretical political science, approaches to the science's methodology, and the history of the science's development.

**Keywords:** political science, applied political science, political theory, political institutions, party, conceptual and descriptive, integration function, verification, explicitness, modeling, quantification.

**Kirish.** Siyosat – bu jamiyatni boshqarish, davlatning faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan fan va amaliyotdir. Aflatun “Siyosat san'atining mohiyati - davlatning umumiy hayotini oqilona tashkil etish va olib borish qobiliyatida, siyosiy “matoni” to‘qish qobiliyatida namoyon bo‘ladi” deb aytgan.

Siyosatshunoslik – bu siyosat va siyosiy jarayonlarni o'rganadigan fan. U siyosatning turli jihatlarini, jumladan, davlat tuzilishi, siyosiy ideologiyalar, hukumat tizimlari, xalqaro munosabatlar va siyosiy madaniyatni tadqiq etadi.

Amaliy siyosatshunoslik — siyosatshunoslikning bir yo'naliishi bo'lib, nazariy bilimlarni real hayotda qo'llashga qaratilgan.

Bu fan siyosiy jarayonlarni boshqarish, siyosiy institutlar faoliyatini samarali tashkil etish, va siyosiy qarorlarni qabul qilish jarayonlarini tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Amaliy siyosatshunoslik faniga urg'u berishdan oldin, siyosatshunoslik faniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, siyosatshunoslik siyosat haqidagi fandir. Siyosat dastlab boshqa fanlar tarkibida o'r ganila boshlangan va uning boshqa ijtimoiy fanlardan mustaqil fan sifatida ajralib chiqish jarayoni XIX asr o'rtalaridan XX asr bosshigacha davom etdi. Uning taraqqiy etishi esa ikkinchi jahon urushidan keyingi davrga borib taqaladi. AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida XX asr o'rtalariga kelib, ta'lim tizimida siyosatshunoslik fani keng qamrovli o'r in egallay boshladi. Yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib, siyosatshunoslikning tadqiqot predmetini ifodalovchi soha noaniq talqin qilingan. 1948-yilda Birlashgan Millatlar

Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha tashkiloti- YUNESKO tashabbusi bilan siyosatshunslarning xalqaro konferensiyasi o'tkazildi. Konferenisyada ekspertlari guruhi maxsus rezolyutsiya qabul qildi. Unda to'rtta asosiy muammo bo'yicha siyosatshunoslik o'rganadigan masalalar ro'yxati berilgan: 1) siyosiy nazariya va siyosiy g'oyalar tarixi; 2) siyosiy institutlar; 3) partiyalar, guruhlar, jamoatchilik fikri, saylovlar, axborot va tashviqot; 4) xalqaro munosabatlар va tashqi siyosat. [1]


Shu bilan birga, siyosatshunoslik siyosiy voqelikni o'zgartirish, siyosiy jarayonlarga maqsadli ta'sir ko'rsatish yo'llari va vositalarini tahlil qilish bilan bog'liq muammolarni o'rganadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Siyosatshunoslik siyosat haqidagi fandir. Uning vazifasi siyosatni ham mohiyati, ham namoyon bo'lishi bilan o'rganishdir. Shunday qilib, u tabiiy ravishda nazariy va amaliy (amaliy)ga bo'linadi. [2]

Siyosatshunoslik o'zining vosita va usullari bilan siyosat sirlariga kirib borish, siyosiy yetakchilar, elita, partiyalar faoliyatining, ommaning siyosiy xulq-atvorining asl mohiyatini olib berishga imkon beradi. Nazariy va amaliy siyosatshunoslik tushunchalarining ilmiy muomalaga kiritilishi bir qator holatlar bilan bog'liq. Avvalo, tadqiqotlarda ikki yo'naliш mavjud: birinchisi, siyosatning nazariy masalalari bilan shug'ullanadigan siyosatshunoslар, ikkinchisi - aniq siyosiy voqeа va vaziyatlarni tahlil qiladigan hamda siyosiy qarorlar qabul qilish uchun tavsiyalar beradigan siyosatshunoslар. Ikkinci yo'naliш vakillari o'zlarini haqiqiy siyosatshunoslар deb hisoblaydilar. Shu o'rinda, siyosatshunoslikni ikkita mustaqil fanga bo'lish tendensiyasini ko'rish mumkin.

Siyosiy nazariya har qanday ijtimoiy-siyosiy hodisani shunchaki tushunib olish uchun emas, balki uni ma'lum sharoitlarda o'zgartirish yoki nazorat ostiga qo'yadigan tarzda tushunish uchun yaratilganligi bilan amaliyidir. Nazariya ilmiyligi tamoyillaridan eng muhimi- verifikatsiya (tajriba bilan tekshirish) va ekspelisitlikdir. Keyingisi qo'llanilayotgan kategoriya va konsepsiyalarning aniqligi, ularning operatsionallashuvni, ya'ni empirik faktlarga tayanuvchi verifikatsiyalashuvchi qaydlardan iboratligini anglatadi. [3]

Siyosiy hayotni o'rganuvchi siyosatshunoslik siyosiy faoliyat to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish, siyosiy taraqqiyot jarayonlarini tavsiflash, tushuntirish va tushunish, siyosatshunoslikning kontseptual apparatini, siyosatshunoslik tadqiqotining metodologiyasi va usullarini ishlab chiqish bilan bog'liq ilmiy muammolarni hal qiladi. Shuning uchun ham nazariy va amaliy siyosiy fanlar tadqiqot obyekti yoki metodi bilan emas, balki o'z oldiga qo'ygan maqsadi: ilmiy yoki amaliy masalalarni hal etishi bilan farqlanadi.



Siyosiy masalalar odatda u yoki bu amaliy masalaga qaratilgan bo'ladi. Hatto qadimgi davr siyosiy qarashlari ham davlat boshqaruvini ham takomillashtirish, qonunsevar fuqarolarni tarbiyalash, hokimlar obro'sini mustahkamlash bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan siyosiy tadqiqotlarda borliqdan ancha uzoq, mavhum, nazariy tasavvurlar bilan bir qatorda siyosiy hayotning amaliy masalalarini o'rghanish va hal qilishga bevosita qaratilgan bilimlar ajralib chiga boshladi. Ular amaliy siyosatshunoslik sohasini tashkil etdi.[4]

V.N.Amelin va A.A.Degtyarevlarning ta'rifi bo'yicha amaliy siyosatshunoslik - bu siyosiy sohaning rivojlanish mexanizmlari va tendensiyalari to'g'risidagi bilimlardan foydalanishga va shunga asoslangan tamoyillar va usullarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijtimoiy muhandislik va siyosiy fan bo'limi. Ushbu fanning rivojlanish tendensiyasini ko'plab olimlar amaliyotida kuzatish mumkin. Xususan, Stronin Aleksandr Ivanovich (1826-1889)- rus sotsiologiyasi vakili, asosiy asarlari: "Tarix va metod" (1869); "Siyosat fan sifatida" (1872); "Ommaviy tarix" (1885). "Siyosat fan sifatida" (1872) nomli asarida siyosiy bilimlarni fundamental "nazariy fan" va "amaliy san'at" ga bo'lgan. Stronin asari ikkita qismga bo'linadi, birinchisida fundamental tushunchalar va ijtimoiy, siyosiy modellari, ikkinchisida - "Rossiyaning siyosiy diagnostikasi va prognozi" keltirib o'tilgan.

Yana bir olim - Viktor Viktorovich Ivanovskiy (1854 -1926) — rus huquqshunosi va sotsiologi, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning okrug tizimi va ularning empirik tadqiqotlari natijalari asosida boshqaruv jarayonini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergen.

Chicherin (1872-1936), rus inqilobchisi, sovet diplomati, mashhur "Davlat fanlari kursi" kitobini (1894 - 1898) ishlab chiqqan. U amaliy siyosat nafaqat siyosiy nazariyaning rivojlanishidan oldin rivojlandi va unga rahbarlik qiladi, balki ma'lum ma'noda siyosat fan emas, balki har qanday davlat fani paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan amaliy san'atdir deb aytib o'tgan.

Nazariy siyosatshunoslik siyosatning nazariy masalalari bilan shug'ullansa, amaliy siyosiy jarayonlarga maqsadli ta'sir qilish yo'llari va vositalarini tahlil qilishni o'rganadigan siyosatshunoslikdir. Nazariy siyosatshunoslikda siyosiy faoliyat to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishi, siyosatshunoslikning konseptual va kategorial apparatini, siyosiy tadqiqotining metodologiyasi va usullarini ishlab chiqishni o'rganadi. Amaliy siyosatshunoslikda bo'lsa, nazariy modellar, metodologik tamoyillar, tadqiqot usullari va siyosiy texnologiyalarni amalda qo'llash uchun aniq dastur va tavsiyalar majmui ishlab chiqiladi, "nima uchun?" va "qanday qilib?" degan savollarga javob beradi, doim amaliy siyosiy muammoga yoki mijozga qaratilgan bo'ladi. Nazariy siyosatshunoslik verifikatsiya(tekshirish), eksplisitlik (tilda ifodalash) kabi qonuniyatlariga tayansa, amaliy siyosatshunoslik modellashtirish va kvantifikatsiya (siyosiy hodisalarni miqdorlarda ifodalanishi) kabi qonuniyatlariga tayanadi.

Hozirgi amaliyotda sifat usullaridan miqdor usullariga o'tish tendensiyasi keng qo'llanilmoqda. Sababi siyosiy hodisalarni miqdorlarda ifodalash nisbatan aniq dasturlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Amaliy siyosatshunoslik nazariy modellar, metodologik tamoyillar, tadqiqot usullari va tartiblari, shuningdek, amaliyotda qo'llash va real siyosiy samaraga erishishga qaratilgan siyosatshunoslik texnologiyalari, aniq dastur va tavsiyalar majmui sifatida taqdim etilishi mumkin. Amaliy siyosatshunoslikda asosiy narsa bilimni oshirishga emas, balki amaliy manfaatlarga e'tibor qaratishdir. U yakuniy natija, ish haqi va kasbiy martabani baholashning boshqa mezonlarini qabul qiladi. Xususan, amaliy siyosatshunoslik siyosiy hodisalarning asosiy ishtirokchilari, ularning ierarxiyasi, sinflar va sinf ichidagi tuzilmalar, partiyalar, olomon va siyosiy auditoriyalar, mintaqaviy (hududiy) guruhlar, diniy-etnik va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlarni o'rganadi; siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishda siyosiy voqealar ishtirokchilarining rolini o'rganadi. Siyosiy vaziyat, uni tahlil qilish va siyosiy amaliyotda ko'rib chiqish; muayyan siyosiy vaziyatni tahlil qilishda jamiyatning tarkibiy-mantiqiy modelini qo'llash; siyosiy hodisalar ishtirokchilarining hokimiyat darajasi, ularning siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va saqlab qolish bilan bog'liq manfaatlari; ijtimoiy-siyosiy kuchlarni uyg'unlashtirish va uning asosiy usullari; siyosatda yangi axborot texnologiyalari, siyosiy jarayonlarni modellashtirish, siyosatda kompyuter texnologiyalari, siyosiy prognozlash; siyosiy hokimiyatga saylovlar va saylov kampaniyasi texnologiyasi; siyosiy hodisalar va siyosiy risklarni boshqarish (baholash usullari), siyosiy qarorlar qabul qilish algoritmi.

Amaliy siyosatshunoslik aniq siyosiy hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bu juda jiddiy masala va puxta, chuqr o'ylangan tayyorgarlikni talab qiladi. Siyosiy tahlil natijasida olingan ma'lumotlarning qiymati uni har tomonlama tayyorlashga qaratilgan sa'y-harakatlarga

to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Shuning uchun siyosatshunoslik tahlilining metodologik usullarini o'zlashtirishdan oldin siyosatshunosning siyosatshunoslik tadqiqotlarini o'tkazishga tayyorligining tegishli darajasini ta'minlaydigan aniq qoidalarni o'zlashtirish bo'yicha ko'plab ishlar olib boriladi.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Siyosiy jarayonlarni, institutlarni, siyosiy qarorlarni va insonning xulq-atvorini o'rganishda qo'llaniladi. Bu sifatlari (kvalitatif) yoki miqdoriy (kvantitativ) usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Sifat usullariga misol tariqasida ekspert tahlil usullari, Delphi usuli, SWOT, ivenet tahlil usullarini keltirish mumkin, miqdoriy usullarga esa kontent tahlil, matematik modellashtirish usullarini keltirib o'tish mumkin. Ushbu usullar amaliy siyosatshunoslik fanining metodologiyasini aniqlash imkonini beradi.

Amaliy siyosatshunoslik fanidagi yondashuvlar bir nechta bo'lib, ular nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishga yordam beradi. Institutsional yondashuv ulardan biri bo'lib, unda siyosiy institutlar (parlament, hukumat, sud) va ularning siyosiy jarayonlarga ta'siri o'rganadi.

Masalan, siyosiy qarorlar qabul qilishda konstitutsiyaning ahamiyatini tahlil qilishni keltirib o'tish mumkin. Ya'ni siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni bevosita siyosiy institutlar bilan bog'liqdir, konstitutsiya bo'lsa mamlakat ichida sodir bo'ladigan barcha jarayonlarni umumiy tartibga soluvchi va barcha hududlarda amal qiluvchi muhim hujjatdir.

Amaliy siyosatshunoslikda tarixiy yondashuv ham mavjud bo'lib, bu siyosiy jarayonlarni tarixiy kontekstda o'rganadi va ularning hozirgi siyosatga ta'sirini tahlil qiladi.

Mustamlakachilik davridagi siyosiy institutlarning mustaqil davlat boshqaruviiga ta'sirini o'rganish ushbu yondashuv yordamida amaliy siyosatshunoslik fani tadqiqot metodologiyasini ochib beradi. Amaliy siyosatshunoslik fanining vazifalari bo'lsa quyidagi jadvalda berilgan:



Shunga ko'ra u fan doirasida va fandan tashqari turli funksiyalarni bajaradi.

Uslubiy-baholovchi. U tadqiqotchiga tadqiqot usullari va protseduralari tizimini taqdim etadi. Bu siyosiy texnologiya va siyosiy tahlil nazariyasining bir turi; ushbu tadqiqotlar natijalarining kognitiv foydalilagini baholashni shakllantirish;

Boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat integratsiya funksiyasi. Ya'ni, ma'lum fan o'z tili (atamalari, tushunchalari, kategoriyalari) va uslubiy vositalariga tayangan holda o'zini va "qo'shnisini" boyitib, turdosh fanlar bilan qay darajada hamkorlik qila oladi.

Siyosiy fanning funksiyalari siyosiy hayotning ko'plab tekisliklarida amalga oshiriladi va shuning uchun ham shunga ko'ra farqlanishi mumkin. Birinchi guruhni - "klassik nazariy funksiyalarni" ajratib ko'rsatamiz. Bunga quyidagilar kiradi:

Kontseptual va tavsiflovchi. U tadqiqotchiga siyosatshunoslik doirasida va undan tashqarida ma'lum atamalar, tushunchalar va toifalar zaxirasini, shuningdek, ushbu toifalar va tushunchalar qamrab olgan siyosiy voqelik mazmunini aks ettiruvchi tavsif qoidalarini taqdim etishdan iborat. Bu bizga "nima qilinmoqda va qanday?" Degan savolga javob berishga imkon beradi;

Aniqlangan tendensiyalar, faktlar va qonuniyatlar asosida siyosiy jarayonlar va hodisalarning ma'lum tushuntirishlarini beruvchi tushuntirish funksiyasi. Bu bizga "nima uchun bu shunday qilingan va boshqacha emas?" Degan savolga javob berishga imkon beradi;

Prognostik funksiya. Uning maqsadi oldindan tushuntirish uchun ishlatalgan bayonotlarga muvofiq oldindan bilishni shakllantirishdir. Fanning maqsadlaridan biri bashorat qilishdir. Shuning uchun siyosatshunoslik tadqiqotining ahamiyati nafaqat uning muayyan tendentsiyalarni qanchalik adekvat aks ettirishi, balki ularning ilmiy asoslangan bashoratlarda avj olish darajasi bilan ham belgilanadi. Bugungi kunda qabul qilingan siyosiy qarorlar oqibatlarini bashorat qilish, shuningdek, siyosiy monitoring – kelgusidagi nomaqbul siyosiy voqealarни kuzatish va erta ogohlantirish alohida qiziqish uyg'otadi. Jamiyatimiz taraqqiyotining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash siyosatshunoslik funksiyasiga kirmasligini ta'kidlaymiz (bu prognostika fanining vakolatidir).

Fandan tashqarida amalga oshiriladigan funksiyalar:

Instrumental-ratsionalizator (boshqaruvchi), siyosiy subyektlarga siyosiy muhit, vaziyat va ularga muvaffaqiyatli ta'sir qilish vositalari haqida bilim berish. U "qanday va nima uchun?" degan savollarga javob beradi. Siyosatshunoslik bu yerda siyosiy maqsadlarni amalga oshiradigan vositalar tizimining elementlaridan biri vazifasini bajaradi va siyosiy harakat subyektlari uchun maqbul bo'lgan vaziyatni yaratish quroli hisoblanadi. Siyosatshunoslik siyosiy qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish muammosini alohida tadqiq qiladi va optimal va samarali siyosiy faoliyat bo'yicha tavsiyalar beradi;

"Nima uchun?" degan savol atrofida qurilgan mafkuraviy funksiya. U amaldagi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar mazmunini qayta qurish, siyosiy voqealar ishtirokchilarining harakatlarini rag'batlantiruvchi qadriyatlarning muhim bog'liqligini asoslashdan iborat.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://studfile.net/preview/6312580/>

Zamonaviy siyosiy bilimlarni egallash siyosatni safsatabozlikdan, davlatni diktaturadan, demokratiyani anarxiyadan ajratish, davlat, partiya va boshqa jamoat tashkilotlarining jamiyatdagi o'rni va vazifalarini teran anglab olish imkonini beradi.[5]

Amaliy siyosatshunoslik kasbi siyosiy jarayonlarni, davlat boshqaruvini va jamiyatning turli qatlamlari bilan o'zaro aloqalarni o'rganishga qaratilgan. Amaliy siyosatshunoslik kasbi va fanining namoyon bo'lishi bir qancha sohalarda namoyon bo'ladi. Siyosiy tizimlar, tashkilotlar, qonunlar va siyosiy xatti-harakatlarni chuqur tahlil qilishda, siyosiy qarorlar ishlab chiqishni osonlashtirish uchun davlat yoki tashkilotlar uchun strategiyalar ishlab chiqishda, siyosiy kommunikatsiya, jamoatchilik fikrini shakllantirish va siyosiy kampaniyalarni boshqarishda amaliy siyosatshunoslikning ahamiyati yuqorida. Bu kasbda muvaffaqiyat qozonish uchun analitik fikr, muammolarni hal qilish qobiliyati, yaxshi muloqot ko'nikmalari va siyosiy jarayonlar haqida chuqur bilim talab etiladi.

**Foydalilanligan adabiyotlar:**

1. X.T. Odilqoriyev, D.X. Razzoqov, Siyosatshunoslik, Toshkent-2012, 8-bet
2. J.Yusubov, M.Atavullayev, J.Akramov, B.Abdullayev, Amaliy siyosatshunoslik, Uslubiy qo'llanma, Toshkent – 2023, 6-bet
3. V.P. Pugachev, A.I. Solovyov, Siyosatshunoslikka kirish, Toshkent “Yangi asr avlodi”- 2004, 41-bet
4. V.P. Pugachev, A.I. Solovyov, Siyosatshunoslikka kirish, Toshkent “Yangi asr avlodi”- 2004, 43-bet
5. X.T. Odilqoriyev, D.X. Razzoqov, Siyosatshunoslik, Toshkent-2012, 11-bet

**Internet saytlari:**

6. <https://studfile.net/preview/6312580/>
7. <https://poe.com/chat/31qrwd471k11srtgikc>